

## SIRDARYO TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING TARIXI HAMDA FAOLIYATI

**N.B.Sadikova**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

*San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti*

*Muzeyshunoslik kafedrası o'qituvchisi*

**S. Z.Ne'matova**

*Muzey predmetlari ekspertizasi, koservatsiya va ta'mirlash*

*yo'nalishi III bosqich talabasi*

### Аннотация

Ushbu maqolada Sirdaryo viloyati tarixi, kelib chiqishi, asosan Sirdaryo tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyada saqlanib kelinayotgan qadimiy topilmalar haqida so'z boradi. Sirdaryo tarixi va madaniyati muzeyi Sirdaryo vohasining qadimgi tarixini, madaniyatini va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** muzey, ekspozitsiya, ko'rgazma, rekonstruksiya, stend, tulum

### Аннотация

В данной статье рассказывается об истории, происхождении Сырдарьинской области, в основном о древних находках, хранящихся в экспозиции Государственного музея истории и культуры Сырдарьи. Музей истории и культуры Сырдарьи освещает древнюю историю, культуру и социально-экономическую жизнь Сырдарьинского оазиса.

**Ключевые слова:** музей, экспозиция, выставка, реконструкция, стэнд, туризм

### Annotation

This article tells about the history and origin of the Syrdarya region, mainly about ancient finds stored in the exposition of the State Museum of History and Culture of Syrdarya. The Syrdarya Museum of History and Culture highlights the ancient history, culture and socio-economic life of the Syrdarya oasis.

**Keywords:** museum, exposition, exhibition, reconstruction, stand, tourism

Sirdaryo viloyati hududi turli davlat birlashmalari tarkibida bo'lgan: Ahamoniylar imperiyasi, Kangyuya, Eftalitlar davlati, Turk xoqonligi, G'arbiy Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari, Chig'atoy ulusi, Amir Temur imperiyasi, Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar.

O'zbekiston SSR tashkil etilganda hozirgi Sirdaryo viloyati hududi Toshkent viloyati tarkibiga kirgan. Hozirgi Sirdaryo viloyati hududining bir qismi ilgari Qozog'iston SSRning Janubiy Qozog'iston viloyati tarkibida bo'lgan. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1956 yil 13 fevraldagi "Qozog'iston SSR va O'zbekiston SSR o'rtasidagi chegarani qisman o'zgartirish to'g'risida" gi Farmoniga binoan bu yerlar O'zbekiston SSRning Samarqand viloyatiga berildi.

1963 yil 16 fevral kuni ushbu hududda Markaz Yangiyer shahrida joylashgan Sirdaryo viloyati tashkil etildi. Uning tarkibiga Samarqand viloyatining Jizzax shahri va Jizzax tumani, Qozog'iston SSR tarkibidan berilgan Kirov va Paxtaorol tumanlari,

Toshkent viloyatining Yangiyer va Guliston shaharlari, Sirdaryo, Guliston va Yangiyer tumanlari kirdi.

Viloyatimizning o‘tmishi, tarixi haqida fikr mulohaza yuritadigan bo‘lsak Sirdaryo tarixi ham yurtimiz o‘tmishining uzviy bir qismi sifatida shonli va qadimiydir. Sirdaryo tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim yozma manbaa qadimgi yunon tarixchisi Arrianning „Iskandarning harbiy yurishlari“ asaridir. Bu asarda Sirdaryo „Tanais“, „Yaksart“ nomi bilan yuritiladi. Sirdaryo viloyati hududi ilk bor alohida o‘lka— Ustrushona sifatida Beyshi, Suyshi va Tanshu kabi Xitoy yilnomalarida ham tilga olingan<sup>1</sup>. Sirdaryo viloyati Sobiq Sovet Rossiyasi davriga kelib 1963-yil 16-fevral kuni Respublikamizning sharqiy qismida joylashgan Mirzacho‘l dashtining bir qismida tashkil etildi. Sirdaryoning o‘ziga xos boy, madaniy va marifiy tarixi mavjud. Fan, madaniyat, turizm, sport, sanoat, matbuot, radio va televideniya sohalari bo‘yicha turli yutuqlarga erishib kelmoqda. Mustaqilligimiz sharofati bilan Sirdaryo vohasi tarixi arxeologik izlanishlar natijasida topilgan noyob topilmalar “Mirzacho‘lni o‘zlashtirish muzeyi”da ya’ni hozirgi “Sirdaryo tarixi va madaniyati davlat muzeyi”da (2017-yil yanvardan) ekspozitsiya qilinib saqlanib kelinmoqda. Ushbu muzey xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashining qaroriga asosan 1990-yil 13-dekabrda tashkil topgan. Muzeyga aylantirilgan ushbu bino 1895-yil qurilib, Romanovlar sulolasiga mansub bo‘lgan knyaz Alekseyivich uyi deb nomlangan va uzoq yillar Turk tashkilotlari faoliyat yuritgan.



“Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi” Guliston shahrida joylashgan bo‘lib, muzey ekspozitsiyasida qadimdan shakllangan buyuk ipak yo‘lidagi Sirdaryo vohasi va uning shaharsozlik madaniyati, hunarmandchilik madaniyati, amaliy san’at turlari, qadimiy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mis ko‘zalar, uy ro‘zg‘or buyumlari va o‘zbek ayollari tomonidan tikilgan so‘zanalar,

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sirdaryo\\_\(viloyat\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sirdaryo_(viloyat))



kashtalar va ko'plab shu kabi eksponatlar ham o'rin olgan va 5ta bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Sirdaryo o'tmishda-bu bo'lim Sirdaryo viloyati tarixining 60yilligiga bag'ishlanadi. Ushbu bo'lim viloyatga ko'chib kelgan aholining yashash tarzi, urf-odatlar, hunarmandchilik buyumlari, maxsus suratlar va ko'rgazmalar bilan boyitilgan.

2. Xalq amaliy san'ati deb nomlangan bo'limda xalq amaliy san'ati durdonalari ko'rgazmaga qo'yilgan.

3. Tarix va arxeologiya bo'limida arxeologik ekspeditsiya natijasida Sirdaryo viloyati hududi va Mirzacho'l dashtidan topilgan qadimgi qadimiy buyumlar ekspozitsiyaga qo'yilgan. Xususan Xovos tumanining Karvonsaroy mahallasida joylashgan "Ko'hna Xovos tepaligi"dan topilgan buyumlar ekspozitsiyadan o'rin olgan. Bu tepalikdan eng noyob eksponat Anaxita haykalchasi va chiroq dastasi topilgan. Bundan tashqari har yili yozda "Ko'hna Xovos tepaligi"da ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi-deydi muzey ilmiy xodimi Anorboy Norqulov.

4. Sirdaryo Mustaqillik yillarida deb nomlangan bo'limida Sirdaryo vohasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan loyihalardan namunalar, ko'rgazmali stendlar va suratlar o'rin olgan. Bu bo'limda Sirdaryo vohasida yetishib chiqqan Osiyo va Jahon chempionlari bo'lgan sportchilarimizning foto suratlari, medallari aks ettirilgan. Muzey bo'limidan tashqari "Muzey do'stlari" deb nomlangan burchak ham tashkil qilingan bolib, Sirdaryo viloyatidagi Sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hadya sifatida muzeyga taqdim etilgan.

5. Sirdaryo tabiati bo'limi orqali Vohadagi noyob hayvon tulumlari, maketlari haqida ma'lumotlar va suratlar ekspozitsiyaga qo'yilgan. "Ko'hna Xovostepa"dan 2500yil avval yashagan, hali fanga noma'lum bo'lgan hayvon skeleti topilgan va bu bo'limning noyob eksponati hisoblanadi.

Muzeyda asrlardan sado beruvchi miloddan avvalgi davrga oid bo'lgan topilmalar "Xovostepa", "Qutluqiztepa", "Binokent", "Shohruhiya" shaharlaridan, shu bilan birgalikda Shirin shahar atrofidagi "Munchoqtepa" yodgorliklaridan topilgan juda ko'p topilmalar mavjud. Shu bilan birga qazishmalarda 2000yillik tarixga ega bronzadan ishlangan keli va temir omoich, dori uchun ishlatilgan shisha idishning bus-butun topilishi juda katta ahamiyatga ega. Muzey 2618ta tarixiy va o'rta asrga oid 400ga yaqin eksponatlarni o'z ichiga oladi.

Mirzacho'l vohasi tarixini chuqur o'rganish, tarixiy manbaalarni saqlash, kelajak avlodlarga yetkazish borasida samarali ishlar olib borilayotir, deydi Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi direktori Zokir Xoldorov. — Masalan, Sirdaryo viloyati hokimining yaqinda qabul qilingan qaroriga ko'ra Guliston shahrining Taraqqiyot mahallasi Navoiy ko'chasi 2-uyda joylashgan, moddiy-madaniy meros obyekti sifatida ro'yxatga olingan binoda Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining arxeologiya bo'limi, Guliston tumanidagi Do'stlik mahallasi hududida joylashgan binoda hamda Xovos tumani Bunyodkor mahallasi, Muhtasham ko'chasi 20-uyda joylashgan binoda viloyat o'lkashunoslik muzeyining filiallari tashkil etilishi belgilandi. E'tiborlisi, Guliston tumanidagi Do'stlik mahallasidagi muzey filiali yaqinda faoliyatini boshladi. Viloyat hokimi imzolagan hujjatga asosan mazkur madaniyat muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq vazifalar viloyat turizm

va madaniy meros bosh boshqarmasi, moliya bosh boshqarmasi, viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi rahbarlari zimmasiga yuklatildi.<sup>2</sup>

Sirdaryo vohasi bugungi kunda go‘zal shaharlardan biri bo‘lgan va Yurtboshimizning g‘amxo‘rligi bilan yanada obod bo‘layotgan Guliston shahri ham ibratli o‘tmishi hamda bugungi bunyodkorlik ishlari bilan g‘urur va iftixorga loyiq. Lekin Sirdaryo viloyatining tarixi keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlari olib borilishi uchun zarurat sezmoqda. Hozirgi kunda muzey xodimlari viloyatimizdagi ekspeditsiya jarayonidagi topilmalarni muzey ekspozitsiyasiga joylab kengaytirish, kulolchilik, badiiy adabiyot yoki boshqa sohadagi topilmalarni, o‘rta asrlarga oid bo‘lgan madaniy boyligimizni hozirgi yosh avlodlarga, qolaversa, o‘zbek xalqiga ko‘rsatishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan. Qadimiy ashyolar hamda eksponatlarni o‘zida jamlagan, bugungi kunda yangi eksponatlar bilan boyitish ishlari olib borilayotgan muzey mahalliy aholi va sayyohlarning e‘tiborini jalb etib kelmoqda.

2017-2027 yillarda qayta rekonstruksiya qilinadigan davlat muzeylari safidan joy olgan.<sup>3</sup> Loyiha qiymati 12,360 mlrd so‘m mablag‘ rejalashtirilgan. Kelajakda Sirdaryo viloyatida ham zamonaviy texnik ba‘zalarga ega bo‘lgan muzeylar shakillantirilib, viloyatning qarib 2700 yildan ziyod tarixi go‘zal ko‘rinishda tamoshabinlarga taqdim etilishi ahamiyatlidir. Fikrimizcha bu holat nafaqat mahalliy aholi balkim, xorijiy tashrifchilarning ham diqqatiga sazovor bo‘lib, qiziqishlar uyg‘otadi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.12.2017 yildagi 975-son
2. Алимов У. А., Сверчкова Л. М., Археологические исследования Сырдарьинской обл., ИМКУ. Вып. 21, Т., 1987
3. Сырдарьинская область — открытое пространство для инвестиций, Т., 1998;
4. Кудратов. С, Сардобалар ўлкаси, Т., 2001.
5. Ahmadali SHERNAZAROV, “Xalq so‘zi”.

<sup>2</sup> Ahmadali SHERNAZAROV, “Xalq so‘zi”.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.12.2017 yildagi 975-son